



\_\_\_\_\_ *hokimligi*  
*maktabgacha va maktab ta'limi*  
*boshqarmasi*

\_\_\_\_\_ *maktabgacha va*  
*maktab ta'limi bo'limi tasarrufidagi*  
*\_\_\_-umumiy o'rta ta'lim maktabi*  
*iqtisodiy bilim asoslari fani*  
*o'qituvchisi*

\_\_\_\_\_ *ning*  
*20\_\_-20\_\_-o'quv yili uchun*  
*“YOSH TADBIRKOR” NOMLI*

**TO'GARAK**  
**HUJJATLARI**

## To'garak a'zolari haqida ma'lumot

	<b>Familiya ismi va sharifi</b>	<b>Tug'ilgan sanasi</b>	<b>Sinfi</b>	<b>Manzili</b> (to'liq)	<b>Ota-onasi</b> (Ismi sharifi)	<b>Telefon</b> (uy yoki mobil)	<b>Izoh</b>
<i>1.</i>							
<i>2.</i>							
<i>3.</i>							
<i>4.</i>							
<i>5.</i>							
<i>6.</i>							
<i>7.</i>							
<i>8.</i>							
<i>9.</i>							
<i>10.</i>							
<i>11.</i>							
<i>12.</i>							
<i>13.</i>							
<i>14.</i>							

15.							
16.							
17.							
18.							
19.							
20.							
21.							
22.							
23.							
24.							
25.							
26.							
27.							
28.							
29.							
30.							

*O'tkazilgan xona* \_\_\_\_\_





**MMIBDO‘ \_\_\_\_\_**  
**20\_\_-20\_\_-o‘quv yili uchun tadbirkorlik asoslari fanidan**  
**“Yosh tadbirkor” nomli to‘garagining**  
**ISH REJASI**

	<b>O‘tiladigan mavzular rejasi</b>	<b>Nazariy soat</b>	<b>Mashg‘ulot o‘tkazish muddati</b>	<b>Mashg‘ulot o‘tkazilgan sana</b>
1	Tadbirkorlikning mazmuni va mohiyati	1		
2	Tadbirkorlik turlari va shakillari	1		
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlik	1		
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlik	1		
5	Oilaviy tadbirkorlik	1		
6	Mikro firma va kichik korxonalar	1		
7	Xususiy korxonalar	1		
8	Masuliyati cheklangan jamiyat	1		
9	Aksiyadorlik jamiyati	1		
10	Qishloq joylarida tadbirkorlik	1		
11	Yoshlar tadbirkorligi	1		
12	Yoshlar tadbirkorligi	1		
13	Biznes-reja ishlab chiqarish	1		
14	Biznes loihalar va shartnomalar	1		
15	Korxonalar tashkil hujjatlari	1		
16	Tadbirkorlikni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish	1		
17	Tadbirkorlik masuliyati	1		
18	Korxonalar mablag‘lari va ulardan foydalanish	1		
19	Bank kreditlari	1		
20	Korxonalar harajatlari	1		
21	Maxsulot narxlarini	1		
22	Korxonalar moliyaviy natijalari	1		
23	Tadbirkorlikni soliqqa tortish	1		
24	Tadbirkorlikda marketing	1		
25	Tavarlarni sotish va reklama	1		
26	Korxonani boshqarish	1		
27	Mahsulotni eksportga chiqarish	1		
28	Tadbirkorlik turlari va shakillari	1		
29	Tadbirkorlik turlari va shakillari	1		
30	Investitsiya faoliyati	1		
31	Tadbirkorlik risklarini baholash	1		
32	Korxonada mehnat resurslari	1		
33	Raqobatbardoshlikni taminlash	1		
34	Glasiyalar	1		

**MMIBDO‘:** \_\_\_\_\_

**To‘garak rahbari:** \_\_\_\_\_

Sana: “\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. Sinflar: 11-“\_\_”. To’garak rahbari: \_\_\_\_\_

MAVZU: Tadbirkorlikning mazmuni va mohiyati

Yangi mavzu bayoni: O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi.

Tadbirkorlik faoliyati (tadbirkorlik) tadbirkorlik faoliyati subyektlari tomonidan qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladigan, o‘zi tavakkal qilib va o‘z mulkiy javobgarligi ostida daromad (foyda) olishga qaratilgan tashabbuskorlik faoliyatidir.

O‘zbekiston Respublikasining 2012-yil 2-maydagi O‘RQ-328-sonli yangi tahrirdagi «Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida»gi qonuni, 3-modda Tadbirkor ishlab chiqarishning boshqa asosiy omillari – yer (tabiiy resurslar), capital (ishlab chiqarish vositalari) va mehnat resurslarini o‘zaro birlashtirib, ularning bir-biriga muvofiq harakatini ta‘minlab, yangi mahsulotlarni ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatishni amalga oshiradi. Tadbirkor – tadbirkorlik layoqatiga, ya‘ni qandaydir turdagi Tovar ishlab chiqarish yoki xizmat ko‘rsatish jarayonini tashkil eta olish borasida bilim, ko‘nikma va tajribaga ega shaxs. Tadbirkorlik har bir insonni muayyan daromad bilan ta‘minlab, uning o‘z ehtiyojlarini to‘laroq qondirish,

turmush darajasini oshirishga imkon yaratadi. Agar jamiyatda tadbirkor insonlar ko‘p bo‘lsa, unda tinchlik va osoyishtalik, barqarorlikka intilish shunchalik kuchli bo‘ladi. Tadbirkorlik yaxshi rivojlangan jamiyatda yaratuvchanlik, ilm-ma‘rifat va saxovat yetakchi o‘rin tutadi.

Tadbirkorlik o‘z faoliyatidan to‘lanadigan soliq va ajratmalar orqali davlat budjeti daromadlarini ham ta‘minlaydi. Budget mablag‘lari qanchalik ko‘p bo‘lsa, jamiyat a‘zolariga xizmat qiluvchi shart-sharoitlar (uy-joylar, yo‘llar, tibbiyot muassasalari, o‘quv maskanlari va boshqalar)ni yanada yaxshilash imkoni paydo bo‘ladi. Demak, tadbirkorlikning ahamiyati uning har bir shaxs, jamiyat va davlatning imkoniyatlarini

kengaytirishi orqali namoyon bo‘ladi. Shunga ko‘ra, mamlakatimizda tadbirkorlik faoliyati davlat tomonidan muhofaza qilinadi va qo‘llab-quvvatlanadi.

Mustahkamlash: Mashg‘ulotning ushbu qismida o‘quvchilar Mashg‘ulot yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

1. Tadbirkorlik tushunchasi nimani anglatadi?
2. Nima uchun tadbirkorlik bozor ishtirokchilarini harakatga undovchi faoliyat hisoblanadi?
3. Tadbirkorlik layoqati qanday xislatlar orqali namoyon bo‘ladi?
4. Nima uchun tadbirkorlik ishlab chiqarish omillari orasida eng muhimi hisoblanadi?
5. Tadbirkorlikning asosiy jihatlarini izohlab bering.
6. Tadbirkorlik alohida shaxs, jamiyat va davlatga qanday manfaat keltirishi mumkin?
7. Kimlar tadbirkor bo‘la oladi?
8. Tadbirkorlikni boshlash uchun nimalar zarur?

O‘quvchilarni baholash: O‘quvchilar Mashg‘ulotdagi ishtirokiga ko‘ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o‘quvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Mashg‘ulotda faol ishtirok etmagan o‘quvchilar bilan ishlanadi.

Uyga vazifa: o‘quvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni o‘qib-o‘rganish, qo‘shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.




MAVZU: Tadbirkorlik turlari va shakllari

Yangi mavzu bayoni: O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi.

Iqtisodiy faoliyat turli ko‘rinishlarda amalga oshiriladi. Masalan, biz turli mahsulotlar (non, kiyim, o‘quv qurollari, avtomobil, uy va boshqalar)ni ishlab chiqarish bilan xizmat ko‘rsatish (maishiy xizmat, ta’lim xizmati, sog‘liqni saqlash, maslahat berish va boshqalar)ni farqlaymiz. Shunga ko‘ra, iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tadbirkorlik faoliyati turlari o‘zidagi jarayonlar shakli va mazmuni hamda ularni amalga oshirish usullariga ko‘ra farqlanadi. Tadbirkorlik faoliyati xizmat ko‘rsatish, vositachilik faoliyati, iste’mol tovarlari ishlab chiqarish, moliyaviy operatsiyalar kabi sohalarda nisbatan samarali amalga oshadi.

Tadbirkorlik faoliyatining yo‘naltirilganligi, kapitalni kiritish obyekti va aniq natijalariga ko‘ra tadbirkorlik turlari farqlanadi. Siz tadbirkorlik bilan shug‘ullanishni boshlashdan avval uning o‘zingizga mos turini tanlashingiz lozim. Aytaylik, siz kichik qandolatchilik sexi ochmoqchisiz. Buning uchun sizda bino, zarur asbob-uskuna va jihozlar hamda yetarlicha moliyaviy mablag‘lar bo‘lishi talab etiladi. Sizing qandolatchilik mahsulotlari ishlab chiqarish faoliyatingiz ishlab chiqarish tadbirkorligi deyiladi. Tijorat tadbirkorligi – tovar-pul munosabatlari va savdo-ayirboshlash operatsiyalariga, ya’ni tovar va xizmatlarni qayta sotishga asoslangan faoliyat. Chakana va ulgurji savdo, turli molmulklar, shu jumladan ko‘chmas mulklar savdosida vositachilik qilish tijorat tadbirkorligiga misol bo‘la oladi. Sug‘urta – turli xil kutilmagan holatlar natijasida yuzaga

keladigan moliyaviy muammolardan muhofaza qilish faoliyati. Sug‘urta faoliyati ham tadbirkorlikning maxsus turi hisoblanadi. Unga mulk sug‘urtasi, hayot va sog‘liqning shaxsiy sug‘urtasi, risk sug‘urtasi, javobgarlik sug‘urtasi kabilar kiradi. Umumiy holda sug‘urta tadbirkorligini sug‘urta xizmatlarining oldi-sotdisi



sifatida tavsiflash mumkin. Tadbirkorlik turlari bilan bir qatorda, tadbirkorlik shakllarini ham to‘g‘ri tanlash muhim hisoblanadi. Tadbirkorlik shakli – faoliyat yuzasidan hamkorlar, boshqa tadbirkorlar va davlat idoralari bilan munosabati jihatidan farqlanuvchi belgilar tizimidir. Tadbirkorlikning muayyan shakli bozorning holati va tadbirkor ixtiyorida kapitalning mavjudligi orqali belgilanadi. Tadbirkorlikning asosiy shakllariga yakka tartibdagi tadbirkorlik, jamoa tadbirkorligi, korporativ tadbirkorlik kiradi. Tadbirkorlik har bir shaklining o‘ziga xos xususiyatlarini keyingi mavzularda ko‘rib chiqamiz.

Mustahkamlash: Mashg‘ulotning ushbu qismida o‘quvchilar Mashg‘ulot yakunida quyida berilgan topshiriqlar va savollarga javob beradilar:

1. Tadbirkorlik qanday turlarga bo‘linadi?
2. Muayyan tadbirkorlik turini tanlashda nimalar hisobga olinadi?
3. Ishlab chiqarish tadbirkorligining o‘ziga xos belgilari qanday?
4. Qaysi holatda ishlab chiqarish tadbirkorligini tanlash mumkin?
5. Tijorat tadbirkorligining asosiy jihatlarini izohlab bering.

O‘quvchilarni baholash: O‘quvchilar Mashg‘ulotdagi ishtirokiga ko‘ra belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadilar. Baholar o‘quvchilarning kundalik daftarlarida va sinf jurnalida aks ettiriladi. Mashg‘ulotda faol ishtirok etmagan o‘quvchilar bilan ishlanadi.

Uyga vazifa: o‘quvchilarga uyga vazifa sifatida mazkur mavzuni o‘qib-o‘rganish, qo‘shimcha materiallar izlab topish va tushunchalarini boyitish topshiriq qilib beriladi.



Sana: “\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_-yil. Sinflar: 11-“\_\_\_\_\_”. To’garak rahbari: \_\_\_\_\_

MAVZU: Yakka tartibdagi tadbirkorlik

MASHG‘ULOTNING BORISHI:

Tashkiliy qism: O‘quvchilar bilan salomlashib, sinf xonasining Mashg‘ulotga tayyorlik darajasini tekshirish, davomatni aniqlash.

Ma’naviyat daqiqasi: O‘quvchilar bilan kunning muhim iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy-tarbiyaviy yangiliklari xususida qisqacha suhbat tashkil etish, ularga nisbatan o‘quvchilarning mustaqil yondashuvini tinglash, bahs-munozara uyushtirish.

O‘tilgan mavzuni takrorlash: O‘quvchilar bilan quyi sinflarda olingan bilimlarni og‘zaki yoki tarqatmali materiallar asosida takrorlash – savol-javob o‘tkaziladi. Mustaqil o‘qish uchun berilgan topshiriqlar o‘quvchilardan so‘raladi.

Yangi mavzu bayoni: O‘quvchilarga yangi mavzu yuzasidan quyidagi tushunchalar beriladi.

**YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLIKNING MAZMUNI**

Siz tadbirkorlikni boshlashdan avval uni qanday shaklda amalgam oshirishingizni aniqlab olishingiz lozim. Buning uchun dastlab eng oddiy shaklni tanlash maqsadga muvofiqdir. Bu esa yakka tartibdagi tadbirkorlik hisoblanadi.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik – yuridik shaxs tashkil etmasdan xususiy tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish shaklidir. Bunday faoliyatni amalgam oshirish uchun «yakka tartibdagi tadbirkor» sifatida davlat ro‘yxatidan o‘tish kifoya.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik jismoniy shaxs (yakka tartibdagi tadbirkor) tomonidan tadbirkorlik faoliyatini yuridik shaxs tashkil etmagan holda amalga oshirishdir.



### **JISMONIY VA YURIDIK SHAXS**

Yakka tartibdagi tadbirkorlikga berilgan ta’rifda jismoniy shaxs va yuridik shaxs tushunchalari uchraydi. Shunday ekan, mazkur tushunchalarning ma’nosini bilib olish tadbirkorlik shakllari to’g’risida kengroq tasavvur hosil qilish imkonini beradi.

Yuridik shaxs – fuqarolik huquq va majburiyatlarining subyektlari hisoblanuvchi korxonalar, muassasa, tashkilotlar. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga ko‘ra, yuridik shaxs o‘z mulkida, xo‘jalik yuritishda yoki operativ boshqaruvda alohida mol-mulkka ega bo‘lgan hamda o‘z majburiyatlari yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo‘lib, ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudga da’vogar va javobgar bo‘la oladigan tashkilotdir. Yuridik shaxslar mustaqil balans yoki smetaga ega bo‘lishlari kerak.

Jismoniy shaxs – huquqiy munosabatlarning ishtirokchisi bo‘lgan alohida fuqaroni ifodalovchi tushuncha. U jamoaviy tuzilma bo‘lgan yuridik shaxsdan farq qiladi: jismoniy shaxs bevosita o‘z nomidan ish yuritadi – faoliyat yurgizishi uchun jamoaviy tuzilma – tegishli firma yoki korxonani qonunda belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazishi shart emas.

### **YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLIKNING AFZALLIKLARI KAMCHILIKLARI**

O‘z faoliyatini mustaqil boshqarish huquqiga egaligi. Yakka tartibdagi tadbirkorlik murakkab boshqaruv tuzilmasiga ega emas. Ya’ni, unda korxonadagi singari direktor, buxgalter kabi lavozimlarni tashkil etish shart emas. Ushbu vazifalarning barchasini yakka tartibdagi tadbirkorning

o'zi bajaradi O'z faoliyati natijalari uchun cheklanmagan shaxsiy javobgarlikka egaligi. Deylik, siz yakka tartibdagi tadbirkor sifatida zararga kirib qoldingiz. Bu qanday holda ro'y berganidan qat'i nazar, siz ushbu faoliyatga sarflangan mablag'larni o'z mol-mulkingiz bilan qoplashga majbursiz Faoliyat yuritishning nisbatan yengilligi. Masalan, yuridik shaxs ko'rinishidagi korxonalar zarur hollarda o'z faoliyatini vaqtincha to'xtatib turish imkoniga ega emas. Yakka tartibdagi tadbirkor uchun esa tegishli soliq idorasiga murojaat Faoliyatni kengaytirishda yollanma mehnatdan foydalanishning cheklanganligi. Ya'ni, qonunchilikka ko'ra, faoliyat turiga qarab, bir nafardan uch nafargacha xodimni yollashga ruxsat etiladi. Bu esa, yakka tartibdagi tadbir qilish orqali o'z faoliyatini muayyan muddatga to'xtatib turish va bu davr uchun soliq hamda boshqa majburiy to'lovlarni amalga oshirmasligi ruxsat etiladi korga o'z faoliyatida ko'p ishchilarni talab qiluvchi texnologiyani joriy qilishga imkon bermasligi mumkin

## **YAKKA TARTIBDAGI TADBIRKORLIKNING ASOSIY**

### **XUSUSIYATLARI**

Yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyat turi va uni yuritish joyiga qarab eng kam ish haqiga karrali miqdorlarda qat'iy belgilangan soliq to'lovlarini amalga oshiradilar.

Eng kam ish haqi – davlat tomonidan mamlakatda muayyan vaqt davri (masalan, soat, kun, hafta, oy yoki yil) uchun mehnatga haq to'lashning belgilangan eng kam miqdori. Misol uchun, qonun hujjatlariga asosan Toshkent shahridan ro'yxatdan o'tgan, oziq-ovqat va nooziq-ovqat tovarlarini chakana sotish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkor eng kam ish haqining 7 barobari miqdorida qat'iy belgilangan soliq va eng kam ish haqining 1 barobari miqdorida sug'urta badali summasini to'lashi lozim.

### **BILIMINGIZNI SINAB KO'RING!**

1. Yakka tartibdagi tadbirkorlik nima?
2. Jismoniy va yuridik shaxs tushunchalari qanday farqlanadi?
3. Yakka tartibdagi tadbirkorlikning afzalliklari va kamchiliklari nimalar orqali namoyon bo'ladi?
4. Yakka tartibdagi tadbirkorlikda bir necha faoliyat turi bilan shug'ullanish mumkinmi?
5. Eng kam ish haqi tushunchasini izohlab bering.
6. Qat'iy belgilangan soliq to'lovlari deganda nimani tushunasiz?
7. Yakka tartibdagi tadbirkorlikda xodimlarni yollash qaysi qonun hujjatlariga asosan tartibga solinadi?
8. Yakka tartibdagi tadbirkorlikni soliqqa tortilish tartibini tushuntirib bering.

Maktab MMIBDO' \_\_\_\_\_sana\_\_\_\_\_ 20\_\_yil

*veb-saytimiz: [Zokirjon.com](http://Zokirjon.com)*

*Hujjat Word variantda beriladi.*

*Zokirjon Admin bilan*

*90-530-00-68 nomerga murojaat qilishingiz, shu nomerdagi telegram orqali bog'lanishingiz yoki nza4567 izlab telegramdan yozishingiz so'raladi.*

*Telegramda murojaatingizga o'z vaqtida javob beriladi*

**Tadbirkorlik fanidan 11-sinf o'quvchilarga 34 soatli to'garakni to'liq holda olish uchun telegramdan yozing.**



**Narxi: 20 ming so'm**

**Telegram kanalimiz:**

**@Maktablar\_uchun\_hujjatlar**

**To'lov uchun: UZCARD \*880\*9860230104973329\*summa#**

**Plastik egasi Nabiyev Zokirjon**



**DIQQAT!!!**

Sizga bu **OMONAT** qilib beriladi.

To'liq holda olganingizdan so'ng:

Faqat o'zingiz uchun foydalaning.

Hech kimga bermang hattoki eng yaqin insoningizga ham.

Internet orqali veb-saytlarga joylamang.

Kanal va gruppalarga tarqatmang.

**OMONATGA**

**HIYONAT QILMANG.**